

№ 8 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 8 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шоҳида Зайнине вна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон журнали
1368-сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Воҳидова Комила Абдуллозизовна</i>	
“ЭЛ БАЙРОФИ” ГАЗЕТАСИ ҲАҚИДА	11-17
<i>Сулайманов Саламат Арапбаевич</i>	
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУХТОР ВИЛОЯТИДА ҚУРУҚЛИК ВА СУВ ТРАНСПОРТИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР (1924-1932 ЙЙ)	18-24
<i>Raupov Холмамат</i>	
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА УРАН КОНЛАРИНИ ЎЗЛАШТИРИШ ТАРИХИ	25-32
<i>Мажидов Анвар Сиражович</i>	
ИМПЕРИЯ МУСТАМЛАКАЧИЛИК СИЁСАТИНИГ ТУРКИСТОН ТУБ ХАЛҚЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА ФУҚАРОЛИК АҲВОЛИГА ТАЪСИРИ (СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА)	33-40
<i>Begamatova Nasiba Xolmurzayevna</i>	
FERMER XO'JALIKLARI VA KLASTER TIZIMI UCHUN O'RTA MA'LUMOTLI MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH TIZIMIDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	41-48
<i>Алланазаров Мурот Мирзаевич</i>	
БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ НОЗИРЛАР ШЎРОСИ ВА МИЛЛИЙ РАҲБАР ХОДИМЛАР ФАОЛИЯТИ ХУСУСИДА	49-54
<i>Ismoilova Feruza Ibragimovna</i>	
URUSH YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN VA MADANIYAT SOHALARIDAGI XIZMATLARI	55-59
<i>Tursunov Xurshid Nasriddinovich</i>	
O'ZBEKİSTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI	60-64

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Yuldasheva Gulnoza Abdinabiyevna</i>	
THE ROLE OF THE DIGITAL ECONOMY IN MODELING THE FINANCIAL ACTIVITIES OF ENTERPRISES	65-70
<i>Oromidinov Muzaffar Pardabayevich</i>	
DIRECTIONS FOR IMPROVING INTERNAL AUDIT IN COMMERCIAL BANKS	71-75
<i>Худайназарова Дилором Хайруллаевна</i>	
ТҮҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	76-84

<i>To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich, Jo'rayev Sirojiddin Muxiddin o'g'li</i>	
КО'ЧХМАС МУЛКНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШДА ХОРИЙИ ДАВЛАТЛАРДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИСЛОХОТЛАР	85-92
<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich</i>	
МИНТАҚАДА ХИЗМАТ ТУРЛАРИДАН САМАРАЛИ РИВОЈЛАНТИРИШ ЙО'НАЛИШЛАРИ	93-98
<i>Turobov Sherzod Alisherovich</i>	
О'ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASIDA UY XO'JALIKLARI TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI	99-105
<i>Шамсиев Нодир Муратович</i>	
МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ПРИ АНАЛИЗЕ РЕЙТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИХ КАЧЕСТВЕННОЕ ОПИСАНИЕ	106-110
<i>Zaripova Moxira Zarip qizi</i>	
AGRAR SOHAGA XORIJIIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	111-114
<i>Узайдуллаев Шерзод Шукуруллаевич</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ОМИЛЛАРИ	115-121
<i>Atabayeva Karomat Rajabovna, Rajabova Maftuna Farhod qizi</i>	
О'ЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМ SOHASINING RIVOJLANISHI VA TAHLILI	122-127
<i>Жумаева Мухлиса Абдуғани қизи</i>	
МАМЛАКАТДА АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	128-137
<i>Камалов Акмал Сайдакбарович, Саматов Гаффор Аллақулович</i>	
ГЕОИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР ШАРОИТИДА ТРАНСПОРТ ЛОЙИҲАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШГА БЎЛГАН ЁНДАШУВЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ	138-150
<i>Мамадиёрөв Олимжон Умаровиҷ</i>	
ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ ТАЪМИНЛАШ НАЗАРИЯЛАРИ ЭВОЛЮЦИЯСИ	151-158
<i>Раббимов Жаҳонгир Эшбоевиҷ</i>	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ОПЕРАЦИОН РИСКЛАРНИНГ МОҲИЯТИ, УЛАРНИНГ ЮЗАГА КЕЛИШ САБАБЛАРИ	159-164
<i>Кулибоев Азамат Шоназаровиҷ</i>	
ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ	165-174

<i>Гадоев Сўҳроб Жумакулович</i>	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ КРЕДИТИНИНГ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ	175-181
<i>Бекжанов Дилмурад Йўлдашович</i>	
ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ АСОСИДА ТУРИСТИК ДЕСТИНАЦИОН МЕНЕЖМЕНТ ЖАРАЁНИ ИШТИРОКЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БАҲОЛАШ	182-193
09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>Boydadayev Abdurroxmon Tolibjon o'g'li</i>	
SHARQ VA G'ARB IRRATSIONAL FALSAFASIDA PANTEISTIK QARASHLARNING QIYOSIY TAHLILI (J.RUMIY VA F.NITSSHE FALSAFASI MISOLIDA)	194-200
<i>Xayridinov Abbosxon Anvarovich</i>	
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MA'NAVIY MA'RIFIY INQIROZLARNING OLDINI OLİSHDA MARKAZIY OSIYO QADRIYATLARINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI	201-205
<i>Quramboev Alisher Maxsudovich</i>	
TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOIY ADOLAT TAMOYILLARINING AMAL QILISHI	206-211
<i>Jo'rayev Alisher Tulqinboyevich</i>	
JAMIYAT MILLIY ASOSLARINI MUSTAHKAMLASH – DAVLATNING USTUVOR MAQSADI	212-217
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i>	
ILMIY BAHS FENOMENINING MANTIQIY- GNOSEOLOGIK MAQOMINI O'RGANISHDA KONSEPTUAL-METODOLOGIK YONDOSHUV	218-224
<i>Пардаева Марҳабо Давлатовна</i>	
АЛИШЕР НАВОЙЙ АСАРЛАРИДА ИЛМГА ОИД ҚАРАШЛАРИНИНГ НАҚШБАНДИЯ ФОЯЛАРИ БИЛАН УЙҒУНЛИГИ	225-233
<i>Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich</i>	
NIKOH MUNOSABATLARINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	234-240
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i>	
DINIY MANBALARDA GO'ZALLIK TO'G'RISIDAGI FALSAFIY QARASHLAR	241-246
<i>Юсупова Феруза Зойировна</i>	
АХЛОҚИЙ ИДЕАЛ – ЁШЛАР МАҶНАВИЙ ЮҚСАЛИШИННИГ МЕЗОНИ	247-251
<i>Teshaboev Muhiddin Marifovich</i>	
IJTIMOIY ADOLATNI TA'MINLASHNING PRINSIPIAL MASALALARI	252-257

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Soatova Nodira Isomitdinovna</i>	
LIRO-EPIK ASARLARDA POETIK FIKRNING BADIY IFODASI	258-265
<i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i>	
FRAZEOLOGIK BIRLIKLER LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA	266-269
<i>Yusupova Omina Muhammadzoir kizi</i>	
DIFFERENT CLASSIFICATION OF FAIRYTALE DISCOURSE IN WORLD AND UZBEK FOLKLORE	270-276
<i>Бозорова Хулкар Одинақуловна</i>	
РУССКИЙ ЯЗЫК КАК СОСТАВЛЯЮЩАЯ СОДЕРЖАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ	277-282
<i>Matyakubov Oybek Quralbayevich</i>	
KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA «KONSEPT» TUSHUNCHASI	283-288
<i>Фатуллаева Камола Рахматуллаевна</i>	
ТЕРМИНЛАРНИНГ БЕЛГИЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАСНИФИ	289-293
<i>Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna</i>	
O'ZBEK TILIDA KAUZATIV FE'LLARNING YASALISH USULLARI	294-299
<i>Xamzayev Otaxon Erkinovich</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KASB-HUNARGA OIDMAQOLLARNING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	300-305

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Абдурахманова Нодирахон</i>	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В СНГ	306-310
<i>Сафоева Садокат Мусоевна</i>	
ЭКОСИСТЕМА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ РОЛЕЙ ЗАИНТЕРЕСОВАННЫХ СТОРОН В КОНТЕКСТЕ ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА	311-320
<i>Абдуллаева Маликабону Эркин қизи</i>	
ХАЛҚ ТАЪЛИМИ СОҲАСИДА КОРРУПЦИЯНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШГА ОИД АЙРИМ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИНИНГ ҚИЁСИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ	321-330

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Zoirova Lola Xamidovna</i>	
TIBBIYOT OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA “INSON ORGANIZMINING RADIATSİYAGA SEZGİRLİĞİ” MAVZUSINI O'QTİSHDA RAQAMLI TEKNOLOGİYALARDAN	

FOYDALANISH	331-336
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloyevich</i>	
KOGNITIV SIFATLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI (MAKTAB PEDAGOG XODIMLARI MISOLIDA)	337-343
<i>Madaminov Azimbek Egamberganovich, Xalillayev O'ktam Sobir o'g'li</i>	
YOSH GANDBOLCHI DARVOZABONLARNI O'YIN TEXNIKASIGA O'RGATISH	344-349
<i>Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi</i>	
ANALYSIS OF THE POSITIVE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE MOTIVATION AND KNOWLEDGE OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATIONAL PROCESS	350-355
<i>Джумаева Хулкархан Мухаммаджоновна</i>	
ВНУТРЕННИЕ УГРОЗЫ, НЕГАТИВНО ВЛИЯЮЩИЕ НА ДУХОВНОСТЬ СТУДЕНТОВ..	356-361
<i>Islomova Madina Asqarovna</i>	
INTEGRATSIYALASHGAN SUN'IY INTELLEKT TOMONIDAN YARATILGAN CHATGPT BOT YORDAMIDA NEMIS TILI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	362-368
<i>Raxmatova Mexrinoz Majitovna</i>	
YOSHLAR MA'NAVIY SALOHIYATINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	369-373
<i>Абдукаюмова Наргиза Райимовна</i>	
ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ МАДАНИЙ-ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДИДАКТИК ШАРТЛАРИ	374-384
<i>Norboyev Farxod Chorshanbiyevich</i>	
KREATIVLIK VA INNOVATSIYA BORASIDA ZAMONAVIY NAZARIYALAR	385-390
<i>Borasheva Aybolgan</i>	
EXPLORING JAMES MCCROSKEY'S RESEARCH ON WILLINGNESS TO COMMUNICATE IN L1 CONTEXTS: IMPLICATIONS FOR LANGUAGE TEACHING AND LEARNING	391-398
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna</i>	
KOGNITIV TADQIQOTLARNING FANLARARO TUSHUNCHА SIFATIDAGI MOHIYATI VA MANTIQIY TAHLILI	399-409
<i>Boboraximov Sanjar Malikjanovich</i>	
MAKTABDA O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYALASHNING ZARURATI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR	410-414
<i>Salimova Shahlo Sayfulloyevna</i>	
XAVFSIZ TA'LIM MUHITI MONITORINGINING AHAMIYATI	415-421

<i>Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi</i>	
METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF LOGICAL REASONING IN PRIMARY SCHOOL PUPILS	422-427
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i>	
SPORT TO'GARAKLARI ORQALI TALABALARING JISMONIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH KOMPONENTLARI	428-433
<i>Kattaeva Feruza Shakirovna</i>	
DEVELOPING STUDENTS SOCIO-CULTURAL COMPETENCE BY USING SOCIO CULTURAL DISCOURSE ANALYSIS METHOD	434-441
<i>G'ofurov Azizbek Umarjonovich</i>	
BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	442-447
<i>Abduraximova Umida Shuxratovna</i>	
BO'LAJAK TARJIMONLARNING LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	448-454
<i>Obidova Gulmira Kuzibaevna</i>	
INGLIZ TILINI O'RGANISH JARAYONIDA TEXNIKA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA EKOLOGIK MADANIYAT ASOSLARINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA INTERAKTIV METODLAR	455-460
<i>Axmadaliyeva Xosiyatposhsho Abduxayotovna</i>	
PROFESSIONAL TA'LIM YO'NALISHLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN O'QUVCHILARNING INGLIZ TILIDAN KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI AUTENTIK MATERIALLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	461-469

09.00.00- Фалсафа фанлари

Quramboyev Alisher Maxsudovich
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti doktarant
E-mail: guramboyevalisher@mail.ru

TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOIY ADOLAT TAMOYILLARINING AMAL QILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Temuriylar davrida ijtimoiy ijtimoiy adolat, jamiyat a'zolarini muhofaza qilish, mamlakatda barqarorlikni ta'minlash, insonni ulug'lash borasida olib borilgan say – harakatlarga doir fikr-mulohazalar yuritilgan. Maqolada Sohibqironning insonparvarlik, bag'rikenglik, adolat ustuvorligiga intilishga doir siyosati va uning bugungi kundagi ahamiyati baholangan.

Kalit so'zlar: oila, ijtimoiy adolat, ijtimoiy himoya, ijtimoiy siyosat, “Temur tuzuklari”.

Kuramboyev Alisher Maksudovich
Doctoral student of the “Family and Women”
Scientific Research Institute

IMPLEMENTATION OF THE PRINCIPLES OF SOCIAL JUSTICE IN THE PERIOD OF TEMURI

Abstract. This article discusses the efforts made during the Timurid era in terms of social justice, protection of society members, ensuring stability in the country, honoring the human being. The article evaluates the policy of Sohibqiron, which strives for the priority of humanity, tolerance, and justice, and its importance today.

Keywords: family, social justice, social protection, social policy, “Temur's laws”.

Курамбоев Алишер Максудович
Докторант Научно-исследовательского
института “Семья и женщина”

РЕАЛИЗАЦИЯ ПРИНЦИПОВ СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ В ПЕРИОД ТЕМУРИ

Аннотация. В данной статье комментируются усилия, предпринятые в эпоху Тимуридов в плане социальной справедливости, защиты членов общества, стабильности в стране и прославления человека. В статье оценивается политика Сахибкирана по стремлению к приоритету гуманности, толерантности и справедливости и ее значение в наши дни.

Ключевые слова: семья, социальная справедливость, социальная защита, социальная политика, «правила Темура».

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I8Y2023N28>

Mavzu dolzarbliji. Ma'lumki bugungi kunga kelib ijtimoiy adolat demokratik va ijtimoiy yo'naltirilgan jamiyat hayotining tamoyiliga aylanadi. Ushbu tamoyil yoki uning ayrim

elementlari zamonaviy konstitutsiyalarda mustahkamlangan. Erkinlik, tenglik, tinchlik, demokratiya va turli jamoalardagi munosabatlarning boshqa ba'zi asosiy tamoyillari bilan bir qatorda,adolat umuminsoniy qadriyatdir. Odil sudloving umumiy talabi qadimdan huquq bilan bog'liq bo'lib kelgan, ammo zamonaviy sharoitdaadolatning aksilogik emas, balki ijtimoiy tushunchasi tobora ko'proq birinchi o'ringa chiqib bormoqda. Milliy mustaqillik tufayli jahon ma'nnaviyati va ma'rifati sohasida o'z o'rinalariga ega bo'lgan ajdodlarimizni va ular qoldirgan boy ma'nnaviy-ma'rifiy merosni teran anglash, o'rganish va ulug'lash imkoniyati yuzaga keldi. Buyuk davlat arbobi, ma'rifat homiysi, yuksak ma'nnaviyat egasi Amir Temur va uning avlodlari qoldirgan abadiylikka daxldor merosi bugungi kunda xalqimiz ruhiy-ma'nnaviy poklanishi va milliy o'zligini anglashning bitmas-tuganmas chashmasidir.

Shu o'rinda Temuriylar davridan bizgacha yetib kelgan ijtimoiy adolat tamoyillari uning bugungi kundagi ahamiyati ijtimoiy adolatli davlatni barpo etishda Sohibqiron tajribasini o'rganish mavzu dolzarbligi belgilaydi.

Mamlakatimizda ijtimoiy adolat tamoyillarining amal qilishi. Davlat o'z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiryapti. Kuni kecha demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalariga asoslanib referendumda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonuni kuchga kirdi. Konstitutsianing 1-moddasi ham "O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" deb e'lon qilinishi buning aks-sadosi o'laroq ko'rishimiz mumkin. Ijtimoiy davlat bu – har bir inson uchun farovon turmush darajasi, xususan sifatli ta'lim, kafolatli tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy yordam va xizmatlar tizimi yaratilgan, uy-joyli bo'lishi sharoiti mavjud bo'lgan, ijtimoiy tafovutlar yumshatilgan, muvozanatlashgan, hech bir fuqaro o'z muammolari bilan yolg'iz qolmaydigan adolatli davlatdir.

Sohibqironning ijtimoiy adolat prinsiplari. Buyuk shaxs, kuragi yerga tegmagan sarkarda, yirik davlat arbobi Amir Temurning buyuk xizmatlaridan biri mamlakatda kuchayib ketgan feodal tarqoqlikka barham berib, el-yurtni o'z tig'i ostida birlashtirdi va markazlashgan yirik markazlashgan davlatga asos soldi. Ikkinchidan, Usmonli turklarning istibdodiga tushib qolgan Bolqon Yarim Orolidagi xalqlarga ozodlik bag'ishladi. Oltin O'rda xoni To'xtamishxonni tor-mor keltirib, Rossiyaning mo'g'ullar hukmronligidan qutulishini 300 yilga tezlashtirdi. Uchinchidan, Turkiston yurtini ilm-fan va madaniyat markaziga aylantirdi. Rus olimi D.Logofet ta'kidlaganidek, Yevropada hali konstitutsiya haqida tushunchaga ega bo'limgan bir paytda, Amir Temur o'z davrida konstitutsion qonunlar majmuasini yaratib ketdi.

"Ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o'zimga rom qildim. Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroq bo'lishga intildim"[1;20-b] -deb yozadi tuzuklarda. Bu esa uning hayotda davlat ishlarini boshqarishda odillik, adolat va haqiqatning ustuvorligini ta'minlash uchun kurashganligini ko'rsatadi.

Amir Temur o'zining "Temur tuzuklari" asarida "Mulk-u mamlakat, sipoh-u raiyat ahvolidan xabardor va ogoh bo'lib turish tuzugi"da: "Har bir sarhad, viloyat, shahar va lashkarda xabar yozuvchi(xabarnavis)lar tayin qilinsinlarki, hokimlar, raiyat, sipoh, o'zining va yot-begona lashkarning xatti-harakati haqida meni xabardor qilsin. Atrofdan kirgan-chiqqan mol-mulk, chetdan kirgan va chetga chiqqan yot kishilar, har mamlakatdan kelgan karvonlar va

hukmdorlik haqidagi xabarlar, qo'shni podshohlar, ularning gaplari, ishlari va uzoq o'lkalardan bo'lib, mening dargohimga yuzlangan ulamo, fuzalo haqidagi batafsil xabarlarni rostlik, to'g'rilik bilan menga yozib tursinlar. Agar bunga xi洛 if sh tutguday bo'lsalar, bo'lib o'tgan voqealarni yozmasalar, yozuvchining xabar yozgan barmoqlari kesilsin. Agar xabar yozuvchi sipoh ishlarini yashirib, xabariga boshqa libos kiygizib (ya'ni, yolg'onne) yozgan bo'lsa, unda qo'lini kessinlar. Agar yolg'on xabarni tuhmat yoki biron g'araz bilan yozgan bo'lsa, uni qatl etsinlar. Va yana amr etdimki, ushbu xabarlarni kunma-kun, haftama-hafta, oyma-oy mening arzimga yetkazib tursinlar". [2;125-126-b.] Bundan shuni ko'rishimiz mumkinki, Amir Temur o'z davrida mamlakatdagi aholining ahvoldidan xabarchilar orqali to'g'ri ma'lumotlarni olib o'z vaqtida muammolarga yechim topib berib turgan.

Amir Temur "Har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafsi yomonlar, buzuqlar va axloqsiz odamlarni mamlakatdan quvib chiqardim" – deb yozadi. Oliyjanob axloqiy fazilatlarni Amir Temur hazratlari ulug'labgina qolmagan, balki bu fazilatlarning bajarilishini fuqarolardan, hatto o'z oila a'zolari tomonidan ham so'zsiz bajarilishini talab qilgan.

Temuriylar davridaadolat kafolati –"Temur tuzuklari"

Amir Temur mamlakatni boshqarishda o'n ikki tuzukni o'ziga shior qilib oladi va farzand, nabiralarini ham shunga da'vat etadi va ular quyidagilar:

- saltanat binosini islom dini bilan quvvatlaydi;
- mamlakatni o'n ikki tabaqa va toifadagi kishilar bilan idora qiladi;
- saltanat ishlarini maslahat, kengash, tadbirkorlik, murosa-yu madora, muruvvat, sabr-toqat, hushyorlik, ehtiyyotkorlik bilan yurgizdi;
- mamlakatni to'ra, tuzuk, qonun-qoidalarga asoslangan holda boshqardi;
- qo'l ostidagi munosib amirlarini, sipohiyalarini martaba va unvonlar bilan rag'batlantiradi. Shuning uchun ham ular saltanat uchun jonlarini fido qilishgan;

- adolat va insof bilan Tangrining yaratgan bandalarini rozi qildi. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm qilib, adolat yuzasidan hukm chiqardi. "Xayr-ehson ishlarim bilan odamlar ko'nglidan joy oldim"[3; 70-b.], -deb ta'kidlaydi. Zolimlardan mazlum haqqini olib berdi;

- saidlar, ulamolar, mashoyixlar, oqil-u donolar, muhaddislar, xabarchilar (tarixchilar)ni izzat-hurmatlarini joyiga qo'yadi, ularni doimo e'tiborli odamlar sifatida ardoqlaydi. "Darvesh, faqir va miskinlarni o'zimga yaqin tutdim ularning ko'ngillarini og'ritmadim va biror talablarini rad etmadim", – deb ta'kidlanishi ham saltanatning naqadar adolat bilan boshqarilganligiga yorqin namunasidir;

- azm-u jazm bilan ish tutadi, biror ishga kirishishdan oldin butun zehni va vujudi bilan bog'lanib, uni bitirmagunigacha taskin topmaydi. Har neki degan bo'lsa unga amal qildi;

- raiyat ahvoldidan ogoh bo'ladi, ulug'larni og'a o'rnida, kichiklarini farzand o'rnida ko'radi, har bir diyor aholisining ahvoldidan ogoh bo'lib turadi va bu uchun maxsus shaxs diyonatli kishilardan voqeanavis belgilaydi. Agar ular yolg'on xabarlar yozsa, qattiq jazolaydi. Hokimlar, sipoh va raiyatdan qaysi birining xalqqa jabr-zulm yetkazganini eshitsa, ularga nisbatan adolat-u insof yuzasidan chora ko'radi;

- tojik, arab-u ajamning turli toifa va qabilalaridan bo'lgan va uning panohiga kirgan kishilarning ulug'lariga hurmat ko'rsatadi;

- farzandlar, qarindoshlar, oshna-og'ayni, qo'shnilar va do'stalarini davlat-u ne'mat martabasiga erishganida ham unutmadi. Mol-mulk bilan haqlarini ado etib turadi;

- do'st-dushmanligiga qaramay har joyda sipohiyarlarni hurmat qiladi, chunki ular boqiy mato bo'lgan jonlarini fony dunyo moli uchun sotadilar. "Yana tajribamda ko'rib bildimki, davlat agar din-u oyin asosida qurilmas ekan, to'ra-tuzukka bog'lanmas ekan, unday mamlakatning shukuhi, qudrati va tartibi yo'qoladi. Bunday sultanat yalang'och odamga o'xsharki, uni ko'rgan har kimsa nazarini olib qochadi. Yoxud kas-u nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigining to'sig'i yo'q uyga o'xshaydi. Shuning uchun ham men o'z sultanatim binosini islom, to'ra va tuzuk asosida mustahkamladim. Sultanatni boshqarishimda uchragan har qanday voqe va ishni to'ra va tuzuk asosida bajardim", – deb ta'kidlaydi. Bu esa yangilanayotgan O'zbekistonda qonun ustuvorligi g'oyalariga monanddir.

Amir Temur davrida davlat tuzilishi. Amir Temur sultanatni o'n ikki toifaga bo'lib, ularga tayangan holda ish ko'radi. Birinchi toifa – sayyidlar, ulamo, shayxlar va fozillarni o'ziga yaqin oladi va ular bilan diniy, huquqiy, aqliy masalalarda fikr almashadi. Ikkinci toifa- keksa va tajribali kishilarning suhabatlaridan naf olib, ulardan tajriba hosil qiladi. Uchinchi toifa-duogo'y kishilarni qadrlaydi. To'rtinchi toifa- amirlar, sarxanglar(kichik lashkarboshi) sipoh-solorlarga majlisdan joy berib, martabalarini ko'taradi. Beshinchi toifa- sipoh va raiyat bo'lib, har ikkisiga bir ko'z bilan qaraydi. "Sipoh va raiyatni shunday tutdimki birortasi ikkinchisidan ustunlik qilib, qattiq gapirolmas edi", – deb ta'kidlaydi. Oltinchi toifa — aqlii, tajribali, eng ishonchli kishilarga sultanat ishlarini, sirlarini ularga ochib, ular bilan kengash qiladi va maxfiy ishlarni ularga topshiradi. Yettinchi toifa — sultanat saroyini vazir, bosh kotiblar, devon munshiylari bilan bezaydi. Chunki ular el orasida bo'layotgan kundalik voqealarni, sipoh va raiyat turish-turmushini bildirib turar edilar va shu sohadagi ishlarni tartibga solib yuritar edilar. Sakkizinchi toifa- hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislarni o'z atrofida to'playdi. To'qqizinchi toifa — muhaddislar, payg'ambar va uning avlodlari, sahobalari haqida rivoyatlar naql qiluvchilar (tarixchilar) hamda qissaxonlar bo'lib ularni ham o'ziga yaqin tutadi. O'ninchchi toifa- mashoyixlar, so'fiylar, Xudoni tanigan oriflar. O'n birinchi toifa- kasb-hunar egalari. O'n ikkinchi toifa- har mamlakat diyor sayohatchilari-yu musofirlarini boshini silaydi. Chunki ular turli mamlakatlardan xabarlar keltirib turardilar. Har bir mamlakat va diyorga karvonboshilar tayinlar ediki, ular qayerga borishmasin, u yerlarning nafis matolari, tuhfalaridan keltirar edilar, o'sha mamlakatda yashovchi kishilarning hol-ahvoli, yurish-turmushlari haqida, hukmdorlarning o'z raiyatiga qanday muomala-yu munosabatda ekanligini aniqlar edilar.

Natija va muhokama. Amir Temur "Sarmoyasi qo'lidan ketib qolgan savdogarga o'z sarmoyasini qaytadan tiklab olishi uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilsin. Dehqonlar va raiyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi yetmay qolgan bo'lsa, unga ekin-tekin uchun zarur urug' va asbob tayyorlab berilsin. Agar fuqarodan birining uy imorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, kerakli uskunalar berilib, unga yordam berilsin"[4; 22-b.], -deya ta'kidlashi bugungi kunda olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning ko'rinishni sifatida baholashimiz mumkin.

"Sulton har narsadaadolatpesha bo'lsin, qoshida insofli, adolatli vazirlar saqlasin, toki podshoh zulm qilgudek bo'lsa, odil vazir uning chorasini topsin. Agar vazir zolim bo'lsa, ko'p vaqt o'tmay sultanat qulaydi" – deya vazirlar ega bo'lishi kerak bo'lgan sifatlarni aytib o'tadi.

“Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulm-u sitam yo’lini to’sdim” [5;36-b.] deydi Amir Temur.

Qaysiki bir mamlakatni fath etmasin u yerning gadolarini to’plab, kundalik yeish-ichishlarini berib, ularga vazifa belgilagan. Agar ular yana gadolik qilsa, uzoq mamlakatlarga surgun qilgan yoki haydagan. Xarob bo’lib yotgan yerlar agar egasiz bo’lsa, ular xolis-a tarafidan obod qilingan. Agar egasi bo’lsa-yu, obod qilishga qurbi yetmasa, unga turli asbob va kerakli narsalar berilib, yerini obod qilishga ko’maklashilgan.

Katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qiladi. Faqir-u miskinlarga langarxona qudirradi, kasallar uchun shifoxona qudirradi va ularda ishslash uchun tabiblar tayinlaydi. Har bir shaharda dor ul-imorat va dor ul-adolat qudirradi. Raiyat-u ziroatni qo’riqlovchi qo’riqchilar ham tayinlaydi.

“Ilm va dinning mashhur kishilar o’z maslahatlari bilan podshohlarga yordam berib kelganlar. Sizlar esa menga nisbatan bunday qilyapsizlar. Mening maqsadim- mamlakatda adolat o’rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqaroning turmushini yaxshilash, yurtimizda qurilishni kuchaytirish, davlatimizni rivojlantirish. Sizlar bu ishlarni amalga oshirishda menga o’z maslahatlaringiz bilan ko’maklashishingiz kerak. Mamlakatning ahvoli, devonning suiiste’mol qilinganligi va qilinayotganligi, oddiy odamlarning joylardagi hokimlar tomonidan ezilayotganligi mendan ko’ra sizlarga ayondir. Shular haqida ma’lumot beringiz, shu kabiadolatsiz ishlarni bartaraf etuvchi — hamda shariat va qonunlarga muvofiq choratadbirlarni aystsangiz yaxshi bo’lurdi” – deya jon kuydirib ayonlari bilan bir majlisda maqsadini ro’yirost bildirishi tarix zarvaraqlarida muhrlanib qoldi.

“Sohibqiron to’plagan mol-dunyon, olinadigan boj soliqlarni xayrli maqsadlar uchun sarfladi. Soliq tizimi ishlab chiqilib, soliq olish qoidasi islom ta’limotiga mos edi. Raiyatdan mol-xiroj yig’ishda ularni og’ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo’yishdan saqlangan. Hosil yig’ib olinmasdan avval soliq to’lash qat’ian taqilangan. Biror fuqaro agar tashlandiq yerni ishlab, uni sug’orib, ekin eksa, birinchi yil u soliqdan ozod qilingan. Ikkinci yil esa u o’zi istaganicha soliq to’lagan. Uchinchi yildagina umumiyoq qoidalarga asosan soliq to’lagan. Amir Temur kambag’al dehqonlarga va kasodga uchragan savdogarlarga ularni o’zlarini tiklab olganlariga qadar xazinadan moddiy yordam berilishini talab qilgan. Eng muhimi, bu davrda hech bir shahar va qishloqlarda odamlardan jon boshidan olinadigan “sarshumor” va har bir xonadondan olinadigan “xona shumor” soliqlari olinmagan.”[6;216-b.] Bundan shuni ko’rishimiz mumkinki, soliq tizimi ham xalqchil bo’lgan va xalqni og’ir ahvolga solib qo’yishdan saqlanilgan.

Rahbarimiz Shavkat Mirziyoyev bugungi kundagi Yangi O’zbekiston tushunchasida mujassam bo’lgan xalq orzusi tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida millatning yetuk vakillarini uni ro’yboga chiqarish yo’lida amaliy harakatlarga undab kelganligini ta’kidlaydi. Shuningdek, “bu orzu Sohibqiron Amir Temur bobomizni jahon sahnasiga olib chiqdi va Temuriylar Renessansi, Ikkinci uyg’onish davri g’oyalari va xalqimizning buniyodkorlik faoliyatiga kuchli ta’sir ko’rsatdi. Markazlashgan qudratli davlat va qonun ustuvorligi bo’lgan adolatli jamiyat g’oyasida mujassam bo’ldi” [7;17-b.]

Xulosa. Davlatchiligimiz asoslarini yaratib ketgan Temur bobomizning ijtimoiy adolatli siyosati, g’ayrat-shijoati, aql-zakovati, tadbirkorligi, xalqparvarligi bilan bizga hamisha ibrat namunasi bo’lib qoladi. U saltanat ishlari xususida fikr yuritar ekan, qudrat kuchda emas, adolatdadir, degan xulosaning teran ma’nosini anglaydi. Katta iste’dod va salohiyat sohibi

Temur jamiyat taraqqiyoti mazmunini, uning obyektiv qonunlarini va bu qonunlarni harakatga keltirish mexanizmini yaxshi anglagan buyuk davlat arbobi va mohir siyosatchi bo'lgan shaxs. Bunga ishonchli asos uning tuzuklaridir. Temur odamlar kayfiyatini, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqroq ko'ra bilgan qobiliyatli siymo. Hatto, ba'zi mamlakatlardaadolat poymol etilgan, hukmdorning xalqqa jabr-zulmi kuchaygan hollarga duch kelsa ham Amir Temurni shu mamlakat hukmdorlariga qarshi yurish boshlashiga majbur etgan. Bunday qilish, o'sha mamlakatlardaadolat o'rnatib, xalq manfaatiga yo'l ochishlik uning amal qilgan g'oyasi hisoblangan. Xullas, Sohibqiron o'z faoliyatida iyomon-e'tiqodga, aniq qonun-qoidalarga tayanib qattiqqo'llik bilan saltanatni idora qilishga intilgan siyosiy arbob. Amir Temurning "Kuch —adolatda" shioriga bugungi kun taraqqiyoti bugungi milliy davlatchilik rivojida hamadolat muhim omil bo'lib xizmat qilishi lozimligini ko'rsatib turibdi[2].

Адабиётлар/Литература/References:

1. Amir Temur o'gitlari: [to'plam] Tuzuvchilar: B. Axmedov, A. Aminov. – T.: Navro'z, 1992.- 20-bet
2. Amir Temur. "Temur tuzuklari" / memuar asar/ forschadan Alixon Sog'uniy va Habibullo Karamatov tarjimasi/ "Buyuk davlatchilik silsilasi" turkumi – T.: "Ilm-ziyo - zakovat", 2020. 125-126 – betlar.
3. Amir Temur. "Temur tuzuklari" / memuar asar/ forschadan Alixon Sog'uniy va Habibullo Karamatov tarjimasi/ "Buyuk davlatchilik silsilasi" turkumi – T.: "Ilm-zakiyo - zakovat", 2020. 70- bet.
4. Amir Temur o'gitlari: [to'plam] Tuzuvchilar: B. Axmedov, A. Aminov. – T.: Navro'z, 1992.- 22-bet
5. Amir Temur o'gitlari: [to'plam] Tuzuvchilar: B. Axmedov, A. Aminov. – T.: Navro'z, 1992.- 36-bet
6. Qo'ldosh Ergashev, Hojiakbar Hamidov G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2015, 216 – bet.
7. Shavkat Mirziyoyev Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 17-bet.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой
тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).